MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI INTEGRATSIYASINING MINTAQAVIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Nuratdinov Mehroj Qayratdin o'g'li
Sanoat muhandisligi va menejmenti fakulteti
23-63 guruh talabasi,
Toshkent kimyo-texnologiya insituti
Email: mehrojnuratdinov13@gmail.com
Tel:+998932061812
ORCID:0009-0005-8888-0309

imrconf.com

Annotatsiya. *Tadqiqot ishida Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyasi zamonaviy global jarayonlar kontekstida mintaqaning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy salohiyatini oshirish imkoniyatlari o'rganilgan. Maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy tarixi, mintaqaviy hamkorlikdagi mavjud imkoniyatlar va integratsiyaning asosiy manfaatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, umumiy iqtisodiy hudud yaratish, xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish va madaniy birdamlikni mustahkamlashning imkoniyatlari va qiyinchiliklari ko'rib chiqiladi. Mazkur izlanish mintaqaviy integratsiyaning afzalliklarini aniqlashga yordam beradi va umumiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan takliflarni ilgari suradi.*

Kalit so'zlar*:Markaziy Osiyo, iqtisodiy integratsiya, mintaqaviy hamkorlik, savdo aloqalari, transport infratuzilmasi, Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi, ASEAN, global iqtisodiyot, siyosiy integratsiya, transchegaraviy hamkorlik, energetika resurslari, mintaqaviy rivojlanish, Markaziy Osiyo iqtisodiyoti.*

ВЛИЯНИЕ ИНТЕГРАЦИИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ НА РЕГИОНАЛЬНУЮ ЭКОНОМИКУ

Аннотация. *В исследовательской работе рассматривается интеграция стран Центральной Азии в контексте современных глобальных процессов и возможности повышения социального, политического и экономического потенциала региона. В статье анализируется общая история стран Центральной Азии, существующие возможности для регионального сотрудничества и основные преимущества интеграции. Также рассматриваются возможности и трудности создания общего экономического пространства, усиления сотрудничества в области безопасности и укрепления культурного единства. Данное исследование помогает выявить преимущества региональной интеграции и выдвигает рекомендации, имеющие важное значение для общего развития.*

Ключевые слова:*Центральная Азия, экономическая интеграция, региональное сотрудничество, торговые отношения, транспортная инфраструктура, Евразийский экономический союз, АСЕАН, глобальная экономика, политическая интеграция, трансграничное сотрудничество, энергетические ресурсы, региональное развитие, экономика Центральной Азии.*

THE IMPACT OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES' INTEGRATION ON THE REGIONAL ECONOMY

Abstract. *In the research work, the integration of Central Asian countries in the context of modern global processes and the opportunities for enhancing the region's social, political, and economic potential are explored. The article analyzes the common history of the Central Asian nations, existing opportunities for regional cooperation, and the main benefits of integration. It also examines the possibilities and challenges of creating a common economic space, strengthening security cooperation, and reinforcing cultural unity. This*

imrconf.com

study helps identify the advantages of regional integration and proposes recommendations of significant importance for collective development.

***Key words**: Central Asia, economic integration, regional cooperation, trade relations, transport infrastructure, Eurasian Economic Union, ASEAN, global economy, political integration, cross-border cooperation, energy resources, regional development, Central Asian economy.*

imrconf.com

Kirish. Markaziy Osiyo davlatlari geografik, tarixiy va madaniy jihatdan bir-biriga yaqin, davlatlarning o‘zaro aloqalari qadimiy savdo yo‘llaridan tortib zamonaviy diplomatiyaga qadar rivojlanib kelgan. Bugungi kunda globalizatsiya va mintaqaviy integratsiya jarayonlari fonida “*Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyasi”*mintaqaning iqtisodiy, siyosiy va xavfsizlik sohalaridagi salohiyatini oshirishning muhim yo‘nalishi sifatida qaraladi. Bu jarayon nafaqat mintaqa ichidagi birdamlikni kuchaytiradi, balki xalqaro maydonda ham uning mavqeyini mustahkamlaydi. Shu bois, Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyasini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, ushbu maqolada bu jarayonning ijobiy tomonlari o’rganilgan,mavjud muammolartahlil etilgan va takliflar berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyo davlatlari o’rtasidagi hamkorlik munosabatlari to’g’risidagi axborotlar, tahliliy ma’lumotlar, statistik solnomalar, ilmiy tadqiqotchilarning mavzuga oid monografiyalari, ilmiy maqolalari o’rganildi. Tadqiqotda Xalqaro tashkilotlarning hisobotlari (ya’ni, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg’armasi va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi) hamda, mintaqa davlatlarining milliy statistika qo’mitalari va BMTstatistika bo’limidan olingan statistik ma’lumotlar qo’llanildi.

R.Sh.Mirzahatamovning ,,Markaziy osiyo davlatlari tashqi siyosatida mintaqaviy hamkorlik” mavzusidagi maqolasida Markaziy Osiyo davlatlari o’rtasidagi mintaqaviy hamkorlik va integratsiya masalalarining ijtimoiy, tarixiy va siyosiy jihatlari tahlil qilingan.[1]

imrconf.com

Bahodir Nurillayevich Omonovning ,,Markaziy osiyo mamlakatlarida mintaqaviy integratsiya muammolari yechimining asosiy omili" ilmiy ishida Markaziy Osiyo mamlakatlari integratsiyasini rivojlantirish omillari haqida fikr yuritilgan. O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan yaqin qo‘shnichilik siyosatini yurtishdagi xatti-harakatlariga e'tibor qaratilgan.[2]

R.Sh.Mirzahatamovning "Zamonaviy xalqaro munosabatlarda markaziy osiyo davlatlarining xalqaro tashkilotlar va yirik davlatlar bilan hamkorligi" tadqiqotida Mustaqillikdan keyingi yillarda mintaqa davlatlari o'rtasida integratsiya masalalariga bo'lgan urinishlar, ularning yutuq va kamchiliklari o'rganilgan.[3]

Qo‘ysinova Fazilat Oripovna "Markaziy osiyo davlatlari integratsiyasida xalqaro tashkilotlarning roli" mavzusidagi maqolasida Markaziy Osiyo davlatlaridagi integratsion jarayonlarning rivojlanishi, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning mintaqadagi integratsion jarayonlarni rivojlantirishga ta'siri tahlil qilingan.[4]

Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti sifatida, 2017-yildan boshlab Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy integratsiyani mustahkamlashga katta ahamiyat bermoqda. Sh.Mirziyoyevning asosiy maqsadlaridan biri – Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashdir. Markaziy Osiyo davlatlarining prezidentlari bilan bo'lib o'tgan majlislardagi o'z nutqlarida mintaqa davlatlarini o'zaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirishga chaqirdi. "Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, savdo aloqalarini mustahkamlash va energetika sohasida birgalikda ishlash bizning mintaqaviy farovonligimizga xizmat qiladi"[1], – dedi O'zbekiston Prezidenti Sh,M.Mirziyoyev 2017-yil 27-yanvarda Toshkentda o'tgan Markaziy Osiyo sammitida. Markaziy Osiyo iqtisodiy ittifoqini tashkil etish, savdo-sotiqni soddalashtirish, bozorlarni

[1] Sh,M.Mirziyoyev 2017-yil 27-yanvarda Toshkentda o'tgan Markaziy Osiyo sammitdagi nutqidan.

birlashtirish va mintaqaviy resurslarni samarali boshqarish masalalari ko'tarildi. “Iqtisodiy integratsiya faqat iqtisodiy o'sishga xizmat qilmaydi, balki mamlakatlar o'rtasidagi tinchlikni mustahkamlashga ham yordam beradi”[2], – deb ta'kidladi prezident. Bunday ittifoq mintaqadagi mamlakatlar o'rtasidagi savdo hajmini oshirish va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyasi va iqtisodiy ittifoqiga qaratilgan tashabbuslari 2017-yildan boshlab bir qancha xalqaro sammitlar va davlat rahbarlari majlislarida o'z ifodasini topdi. “Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bizning eng muhim vazifamizdir”[3], – degan nutqi bilan 2017-yil 27-yanvarda Toshkentda o'tgan Markaziy Osiyo sammitida, shuningdek, 2019-yil 15-may Bishkekda o'tgan SHHT sammitida bu masalalar alohida ta'kidlangan.

Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyasi va iqtisodiy ittifoqi haqidagi tashabbuslari mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. O'zbekistonning tashqi siyosatida bu boradagi sa'y-harakatlar mintaqadagi tinchlik, barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning daslabki bosqichida Markaziy Osiyo davlatlari ichki iqtisodiyotining mintaqaviy iqtisodiyotga ta’siri bo‘yicha adabiyotlar, monografiyalar hamda, bir nechta ilmiy tadqiqotlardan foydalangan holda tushuncha va ma’lumotlar o‘rganildi. Bundan tashqari maqolaning keyingi bosqichlarida SWOT tahlil, statistik tahlil, analiz, sintez kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

[2] Sh,M.Mirziyoyev 2017-yil 27-yanvarda Toshkentda o'tgan Markaziy Osiyo sammitdagi nutqidan
[3] Sh,M.Mirziyoyev 2017-yil 27-yanvarda Toshkentda o'tgan Markaziy Osiyo sammitdagi nutqidan

imrconf.com

imrconf.com

Tadqiqot davomida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari va ularning mintaqaviy iqtisodiyotga ta'sir darajasi o‘rganildi. Mazkur tadqiqot Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy siyosatini takomillashtirish, yangi loyihalarini amalga oshirish va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga turtki bo’ladi. Kelgusida davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish orqali global iqtisodiy tarmoqlarga muvaffaqiyatli qo‘shilish imkoniyati yanada ortadi.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va iqtisodiy birlashuv YaIM hajmini oshishiga olib keladi va mintaqaviy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo davlatlarining ***Yalpi ichki mahsuloti*** (YaIM) hajmi 2023 yilga oid ma'lumotlarga ko‘ra quyidagicha bo’ldi. (1-diagramma):

1-diagramma:



Yuqoridagi diagrammada ko'rsatilgan Markaziy Osiyo davlatlarining Yalpi Ichki Mahsuloti (YaIM) o'rtasidagi farqlar mintaqadagi iqtisodiy rivojlanishning xilma-xilligini aks ettiradi. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy o'sish sur'atlari va resurslardan samarali foydalanish darajasi o'zgarib turadi. Masalan, ba'zi davlatlar ko'proq sanoat va qishloq xo'jaligiga tayanayotgan bo'lsa, boshqalari xizmatlar sektori va savdoga ko'proq e'tibor bermoqda.

Har bir davlatning o'ziga xos kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari mavjud bo'lib, ular mintaqaning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda Markaziy Osiyo davlatlarining SWOT tahlilidan foydalanildi, bu usul mintaqaning global siyosatdagi o'rni va iqtisodiy holatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Tahlil natijasida har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlarini va ularning mintaqaviy hamkorlikdagi imkoniyatlari hamda xavflarni aniqlaymiz. (2-3-jadvallar):

2-jadval:

№	DAVLATLAR	S (STRENGTH)	W (WEAKNESS)
1	O’zbekiston	Iqtisodiy: Boy tabiiy resurslar (gaz, paxta), rivojlanayotgan sanoat sektori. Ijtimoiy: Katta aholi soni – 36 mln, ishchi kuchi yetarli. Siyosiy: Markaziy Osiyoda strategik geografik joylashuv.	Iqtisodiy: Qishloq xo‘jaligiga yuqori bog‘liqlik. Ijtimoiy: Yoshlar o‘rtasida ishsizlik muammosi. Siyosiy: Ba’zi hududlarda siyosiy barqarorlik sust.
2	Qozog’iston	Iqtisodiy: Tabiiy resurslarga (neft, gaz, uran) boy, kuchli eksport. Ijtimoiy: Katta hudud, nisbatan yaxshi yashash darajasi. Siyosiy: Nisbatan barqaror siyosiy tizim, kuchli xalqaro diplomatiya.	Iqtisodiy: Diversifikatsiyaning sustligi (neftga qaramlik). Ijtimoiy: Katta hudud bo‘ylab aholining notekis joylashuvi. Siyosiy: Hududiy markazlashuv muammosi.

imrconf.com

imrconf.com

3	Tojikiston	Iqtisodiy: Suv va gidroenergetika salohiyati. Ijtimoiy: Aholining ishlashga moyilligi. Siyosiy: Tinchlikni tiklash bo‘yicha tajriba.	Iqtisodiy: Tashqi moliyaviy yordamga bog‘liqlik. Ijtimoiy: Ishsizlik va kambag‘allik. Siyosiy: Yashirin siyosiy ziddiyatlar.
4	Turkmaniston	Iqtisodiy: Tabiiy gaz eksportining katta ulushi. Ijtimoiy: Kichik aholi soni va boy tabiiy resurslar. Siyosiy: Neytral tashqi siyosat.	Iqtisodiy: Diversifikatsiya sust, ichki bozor rivojlanmagan. Ijtimoiy: Aloqa va axborot yetishmovchiligi. Siyosiy: Izolyatsiya va tashqi siyosiy faoliyatning sustligi.
5	Qirg’iziston	Iqtisodiy: Qishloq xo‘jaligi va turizm salohiyati. Ijtimoiy: Yosh aholining ulushi yuqori. Siyosiy: Mintaqada demokratik tamoyillarni qo‘llash tajribasi.	Iqtisodiy: Kambag‘allik darajasi yuqori, cheklangan sanoat. Ijtimoiy: Ishsizlik va emigratsiya muammosi. Siyosiy: Siyosiy beqarorlik.
№	**DAVLATLAR**	**O (OPPORTUNITIES)**	**T (THREATS)**
1	O’zbekiston	Regional savdoni kengaytirish, transport yo‘laklarini rivojlantirish;	Suv resurslari bo‘yicha muammolar; Tashqi siyosiy bosim (katta davlatlarning ta’siri).

imrconf.com

		Iqtisodiy integratsiya orqali texnologiyalar almashuvi.	
2	Qozog'iston	Transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali mintaqaviy liderlik; Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish.	Migratsiya va demografik muammolar; Xitoy va Rossiya o'rtasidagi bosim.
3	Tojikiston	Elektr energiyasini eksport qilish orqali iqtisodiy o'sish; Markaziy Osiyoda transport infratuzilmasida ishtirok.	Geosiyosiy bosim va xavfsizlik tahdidlari; Suv resurslari bo'yicha muammolar
4	Turkmaniston	Gaz quvurlari orqali mintaqaviy iqtisodiy integratsiya; Turizm va transport salohiyatini oshirish.	Xalqaro bozorda gazga talabning o'zgarishi; Geosiyosiy ta'sirlar.
5	Qirg'iziston	Regional hamkorlik orqali qishloq xo'jaligini rivojlantirish. Savdo va transport yo'laklaridan foydalanish.	Suv resurslari bo'yicha muammolar; Tashqi qarzlar yuqori.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun Integratsiyaga intilish mintaqada barqarorlikni ta'minlab, davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlaydi va mintaqaning global siyosiy-iqtisodiy tizimdagi o'rnini yanada yuksaltiradi.

Umumiy maqsad va kelajak tasavvuri Markaziy Osiyoni xalqaro hamkorlikning muhim markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

MARKAZIY OSIYO MINTAQASINING *SWOT* TAHLILI:

3-jadval:

Streangth	**Weaknesess**	**Opportunities**	**Threats**
Mintaqaning tabiiy resurslarga boyligi; Aholi va geografik joylashuvning strategik ahamiyati.	Ichki siyosiy va iqtisodiy muammolar, mintaqaviy integratsiyaning past darajasi.	Transmintaqaviy loyihalar, savdo va transport yo‘laklarini kengaytirish.	Iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish va tabiiy resurslarning kamayishi qishloq xo‘jaligi va ichimlik suvi ta’minotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarining SWOT tahlili mintaqaning o'ziga xos iqtisodiy va siyosiy holatini yoritib beradi. Kuchli tomonlar, xususan, tabiiy resurslar va strategik joylashuv, mintaqaning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirsa, zaif tomonlar, masalan, iqtisodiy diversifikatsiyaning yetishmasligi va iqlim bilan bog’liq bo’lgan omillar, muammolarni keltirib chiqaradi. Biroq, integratsiya, innovatsiyalar va turizm sohalaridagi imkoniyatlar, shuningdek, xavflarga qarshi choralar ko'rish, Markaziy Osiyo davlatlari uchun barqaror rivojlanishning yangi yo'llarini ochadi. Mintaqa davlatlari o'z imkoniyatlarini samarali ravishda amalga oshirsa, ular global miqyosda raqobatbardoshligini oshiradi.

Mintaqadagi davlatlar o'rtasidagi integratsiyaning darajasi, ayniqsa, **institutsional integratsiya**, **savdo integratsiyasi**, **transport va infratuzilma integratsiyasi** hamda **integratsiyani cheklovchi omillar** kabi ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi. Shu bilan birga, **ASEAN** va **Yevropa Ittifoqi (YI)** kabi mintaqaviy tashkilotlar ham o'zining yuqori integratsiya darajasi va samarali tizimlari bilan ajralib turadi. Ushbu tahlilning maqsadi, Markaziy Osiyo

imrconf.com

davlatlari o'rtasidagi integratsiyani **ASEAN** va **Yevropa Ittifoqi** bilan taqqoslash, ularning iqtisodiy va siyosiy integratsiyasini baholash va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun imkoniyatlarni ko'rsatishdir(4-jadval):

4-jadval:

Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy integratsiyasi bilan ASEAN hamda YI ma'lumotlarini taqqoslash

№	Taqqoslash omillari	Markaziy Osiyo	Yevropa Ittifoqi (YI)	ASEAN
1	Institutsional integratsiya	Hozircha yagona institutsional tuzilma shakllanmagan. Mintaqada 1990-yillarda tashkil etilgan Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti va keyinchalik Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YOII) singari tashkilotlar orqali integratsiya harakatlari amalga oshirilmoqda. Ammo ko‘plab loyihalar sekin rivojlanmoqda.	Integratsiya darajasi yuqori bo‘lib, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy jihatdan yagona boshqaruv tizimi (masalan, umumiy bozor va yagona valyuta – Yevro) shakllangan; Yevropa davlatlari o‘rtasidagi chegaralar deyarli yo‘q qilingan, bu esa iqtisodiy aloqalarni kuchaytirgan.	ASEAN davlatlari o‘rtasida iqtisodiy integratsiya nisbatan yuqori darajada bo‘lsa-da, siyosiy va huquqiy birlashuv cheklangan. Bu tashkilotning asosiy e’tibori savdo va investitsiyalarni rag‘batlantirishga qaratilgan.

imrconf.com

imrconf.com

2	Savdo integratsiyasi darajasi	Davlatlar o‘rtasidagi savdo hajmi mintaqaning umumiy savdosiga nisbatan 10–20% ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich integratsiya uchun past darajani ko‘rsatadi. Iqtisodiyotlarning bir xil bo‘lishi (masalan, asosan xomashyo eksportiga yo‘naltirilgan).	Ichki savdo ulushi umumiy savdoning 60–70% ni tashkil etadi. Bu davlatlar iqtisodiyotining o‘zaro bog‘liqligini va diversifikatsiyalangan mahsulotlarni ko‘rsatadi.	Ichki savdo ulushi 25–30% ni tashkil etadi. Markaziy Osiyoga nisbatan yuqori bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkich YI darajasidan past.
3	Transport va infratuzilma integratsiyasi	Transport infratuzilmasi integratsiyasi sekin rivojlanmoqda. Biroq, Xitoyning "Bir makon, bir yo‘l" tashabbusi orqali yangi koridorlar yaratil-moqda; Davlatlar o‘rtasida xalqaro transport bozoriga chiqish uchun bir qancha qiyinchiliklar mavjud.	Transport va logistika tizimlari yuqori darajada integratsiyalashgan; Yevropada avtomobil yo‘llari, temiryo‘llar va portlar yagona tizim sifatida ishlaydi.	ASEAN mintaqasida transport infratuzilmasi rivojlanmoqda, lekin ba’zi davlatlar iqtisodiy va geografik cheklovlar tufayli bu jarayonda orqada qolmoqda.

imrconf.com

4	Integratsiyani cheklovchi omillar	Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy jihatdan bir-biri-dan farq qiladi. Qozog‘iston nisbatan rivojlangan iqtisodiyotga ega bo‘lsa, Tojikiston va Qirg‘iziston davlatlari iqti-sodiyot darajasi nisbatan pastroq davlatlar hisob-lanadi, Mintaqaviy savdo va bojxona hamkorligi tizimi kuchli rivojlanmagan.	Yevropada siyosiy kelishmovchiliklar kam bo‘lib, integratsiya jarayonlariga minimal to‘sqinlik qiladi.	ASEAN davlatlarining xilma-xil siyosiy va iqtisodiy tizimlari to‘liq birlashishni sekinlashtiradi.

Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyasi hali to'liq rivojlanmagan bo'lsa-da, mintaqadagi davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun katta imkoniyatlar mavjud. **ASEAN** va **Yevropa Ittifoqi** kabi integratsiya tajribalarini ko'rib chiqish, Markaziy Osiyo uchun o'zaro iqtisodiy va siyosiy bog'liqlikni kuchaytirishdagi muhim yo'nalishlarni aniqlashga yordam beradi

Xulosa. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi integratsiya iqtisodiy o‘sish, savdo hajmini oshirish va infratuzilma rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq siyosiy kelishmovchiliklar, resurslarni taqsimlash muammolari va tashqi kuchlarning ta’siri integratsiya jarayonini sekinlashtirmoqda. Yevropa Ittifoqi va ASEAN tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun siyosiy iroda, institutsional

tuzilmalar va qo‘shma iqtisodiy loyihalar zarur. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish nafaqat mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi, balki davlatlarning global iqtisodiy tizimda o‘z o‘rnini mustahkamlashiga yordam beradi.

Takliflar:

- Suv va energetika bo‘yicha hamkorlikni kuchaytirish uchun davlatlararo kelishuvlarni takomillashtirish;
- Yagona mintaqaviy tashkilotni shakllantirish jarayonini tezlashtirish orqali siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash;
- Savdo va investitsiya jarayonlarini soddalashtirish uchun erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish;
- Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirishda xalqaro tajribani qo‘llash.

imrconf.com

ADABIYOTLAR/ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES:

1. Mukhamediyev, B., Khitakhunov, A. (2017). Central Asian Integration and Its Impact on Regional Trade and Economy. In: Bilgin, M., Danis, H., Demir, E., Can, U. (eds) Country Experiences in Economic Development, Management and Entrepreneurship. Eurasian Studies in Business and Economics, vol 5. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-319-46319-3_2

2. Хайдарова К. А. ОСНОВНЫЕ ЦЕЛЫ МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯХ ХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2025. – Т. 5. – №. 03. – С. 180-184.

3. Хайдарова, Камола Ахинжановна. "ХИМИЧЕСКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ПРОБЛЕМЫ СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЯ ДАННОЙ ОТРАСЛИ." *Интернаука* 6-2 (2017): 5-6.

4. Wang, W. (2014). The Effects of Regional Integration in Central Asia. *Emerging Markets Finance and Trade*, *50*(sup2), 219–232. https://doi.org/10.2753/REE1540-496X5002S215

5. Акунова Г. Ч. Страны Центральной Азии: трудности на пути сближения. Проблемы постсоветского пространства. 2020;7(3):300-311. https://doi.org/10.24975/2313-8920-2020-7-3-300-311

6. Suhrob rustami, Central Asian Integration: Specific Features of the Region July 2022. https://www.researchgate.net/publication/370762642_Central_Asian_Integration_Specific_Features_of_the_Region

imrconf.com